



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna

Angren universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida inklyuziv sinflarda o'qitish asosida o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishning imkoniyatlari ochib berilgan. Asosan, adabiyotlarda bu masalaning mohiyatiga oid qarashlar sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, dars, ta'lim, vazifa, omil, sifat, zamonaviy talab.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 mayda qabul qilingan "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiytadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4708-sonli qarorida ta'limning barcha bosqichlarida matematika fanini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning samarali mehnatini qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, 2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida: "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishning maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy ta'lim tashkilotlari va ilmiy muassasalar o'rtasidagi yaqin hamkorlikni ta'minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish; ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida matematika fanlarini o'qitish sifatini oshirish, hududlarda matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini rivojlantirish hamda yangi maktablarni tashkil etish; matematika fani bo'yicha kadrlarni, xususan, qishloq joylardagi maktablarning kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish, matematika fani bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish"- kabi ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatorida o'qitish masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanmoqda. Ma'lumki imkoniyati cheklaangan bolalar maxsus o'quv reja, o'quv dasturlari asosida maktab ta'limini egallaydilar. Ular uchun ta'lim maxsus korreksion yo'naltirilgan pedagogik jarayon asosida tashkil etilib, defektologik ma'lumotga ega mutaxassislar tomonidan olib boriladi. O'tgan asr maxsus ta'limidan ko'zlangan maqsad va vazifalartahlil etilganda o'quvchilarning umumiy va nutqiy rivojlanishini ta'minlagan holda umumta'lim fanlarini o'qitish va keyingi bosqich ta'limga tayyorlash kabilarni



sharhlash mumkin. Bugungi kun maxsus ta'limi esa, raqobatbardosh mutaxassisni inklyuziv ta'lim jarayonida tayyorlashga ta'sir qiladi. Mazkur vazifa o'z mazmuni va ko'lamiga ko'ra davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidir. Bundan tashqari barcha bolalarning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashda o'qituvchilar faoliyatiga zamonaviy talablar qo'yilmoqda. Masalan, sinfda turli toifadagi bolalar bilan bir paytning o'zida mos yondashuvlarni tashkil eta olish va kutilgan natijani qo'lga kiritishni misol qilishimiz mumkin. Mazkur masala nogiron hamda sog'lom rivojlanayotgan bolalarga matematikani o'rgatishdagi umumiylik va farqli jihatlarni aniqlashni ko'ndalang qo'yadi. Bu yo'nalishda o'rganish ishlarini olib borish, manbalarni tahlil qilish asosida ilmiy xulosalarni asoslash mumkin. Jumladan, inson uchun matematikaning zarurat ekanligini V.M.Tixomirov alohida ta'kidlaydi. Olimning fikricha: "Insoniyatning ma'naviy dunyosini shakllantirishda bu fan tarixini, uning asoschilarini hamda fanga hissasini bilish foydali". Adabiyotlarda matematika o'qitish bilan bog'liq konkret vazifalar qatorida matematik rivojlanish asosida o'quvchilarda bir butun "olam manzarasi"ni shakllantirish bilan bog'liq keng masala ham ko'rib chiqilgan. Bolalikning aynan maktabgacha va maktab davrida turlituman faoliyatda bolada borliqning predmetli olam, kishilik olami, tabiat kabi asosiy sohalari bilan aloqa shakllana boshlaydi, olamni anglash uchun zamin yaratiladi, bola o'zini-o'zi dastlab shu davrda anglay boshlaydi, ya'ni, bir so'z bilan aytganda, "olam manzarasi" shakllanadi. Olam manzarasi tushunchasini keng ma'noda – ongda aks etgan va ongda yaratilgan mental olam obrazi sifatida olib qaraymiz. Dunyoqarashning shakllanishi, o'z navbatida, hozirgi zamon ta'limining oxir-pirovardidagi maqsadidir. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, dunyoqarash, shaxsga xos yangi tizimli hosila sifatida, o'zini shaxs rivojining u o'smirlikka qadam qo'ygan davrida namoyon qiladi. Shu bilan birga hech bir tadqiqotda dunyoqarash bolalikdan boshlanishi inkor etilmaydi. Maktab yoshidagi bolalarning matematik ta'limi qonuniyatlarini ko'rib chiqar ekanmiz, biz ularning rivojlanishida dunyoqarashning muhim o'rin egalashi to'g'risidagi fikrga tayanamiz. Dunyoqarashning rivojlanishi tushunchasiga berilgan ko'pchilik ta'riflarda uning kognitiv tarkibiy qismini, ya'ni dunyoqarashning rivojlanishini ta'minlaydigan aqliy xatti-harakatlar va amallarni tadqiq qilish pozitsiyasidan kelib chiqiladi. U tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarining differentsiatsiyasi va idrok etilishi sifatida, bolaning ichki olami bilan tashqi olamning o'zaro bog'liqlikdagi umumiy, asosiy qonuniyatlarining sub'ektiv obrazi (aksi) sifatida izohlanadi.

Shunday qilib, dunyoqarash bilan bog'liq tasavvurlarning o'ziga xos belgisi tashqi va ichki olam o'rtasida o'zaro bog'liqlikning mavjudligidir. L.S.Vigotskiy ta'kidlaganidek, ilk ontogenezda dunyoqarashdan oldin "dunyoni yaratish" sodir bo'ladi. Bunday deganda, olim bolaning atrof olamga o'z munosabatini ifodalash usulini tushunadi. Shunday qilib, olamning jismoniy va ijtimoiy manzarasi ("dunyo modeli") shakllanadi va u asta-sekin ramziy strukturalari vositasida bola hayotining asosi bo'lib boradi. Nazariy manbalarni tahlil qilar ekanmiz, biz e'tibor qaratgan jihat



shundan iborat bo'ldiki, ko'pchilik olimlar matematik tushunchalarni o'zlashtirishga asoslangan matematik faoliyatni juda moslashuvchan deb biladilar. Moslashuvchanlik tufayli matematik tushunchalardan boshqa faoliyat turlarida ham foydalanish mumkin deb hisoblaydilar. Shuning uchun inklyuziv sinflarda o'quvchilarning matematikani o'zlashtirishlari uchun moslashuvchan o'quv topshiriqlari tayyorlash lozim. Buning uchun o'qituvchilardan differensial yondashuv tamoyillarini bilishi talab etiladi. Bu esa, ularning kasbiy kompetensiyasi bilan bog'liqdir. Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi muhim omillardan hisoblanadi. Ushbu omil inklyuziv ta'limni ildamlatishda ta'lim ishtirokchilarining umummaqsad sari intilishini kafolatlaydi.

Nodavlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarga do'stona munosabatda bo'lish amaliyotining yanada kengroq ko'lamda joriy qilinishi ta'lim sifatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, XXI asrda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish modelini shakllantirishning muhim sharti hisoblangan innovatsion faoliyatni keng ko'lamda tatbiq etish, ilmiy bilimlarni, yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, ta'lim mazmunini rivojlantirishga oid masalalarni hal qilish, innovatsion dasturlar tuzish, diagnostik tahlil o'tkazish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish uchun vaqtinchalik ijodiy guruhlar faoliyatini tashkil etish, ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, jamiyat barqarorligi va insonlar farovon turmushining garovi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Nodavlat ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati tashkiliy, ilmiy, texnologik va murakkab kompleks mahsulot va xizmatlar, innovatsion natijalar va uning biznes faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion infratuzilmani tashkil qilish, logistika, axborot, moliyaviy va boshqaruv tizimini o'z ichiga oladi.

Bu murakkab jarayon mablag'larni to'g'ri taqsimlash va innovatsion rivojlanish uchun xizmatlar ko'rsatish, monitoring, fan, biznes va ta'lim integratsiyasiga asoslangan.

XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya ("modernizatsiya-zamonaviylashtirish, takomillashtirish") qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda nodavlat ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar dunyodagi rivojlangan davlatlarning davlat ta'lim standartlaridagi kompetensiyalarni o'zida singdirishi va faoliyati davomida qo'llay olishi lozim. Jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish, chet tilida muloqot qila olish, pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik, turli madaniyat va qadriyatlarni tushunish va o'z madaniyatiga ega bo'lish. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda egallagan bilim va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi.



Haqiqatan ham, bugungi kunda dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarda ta'limni modernizatsiyalash jarayonini, uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlarni, yangi qonunchilik normalarini kuzatishimiz mumkin. Tajriba va kuzatuvlarimiz tahlilidan ma'lum bo'ldiki, ta'lim tizimini modernizatsiya qilishdagi asosiy zaruriyatlar quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Texnogen sivilizatsiya tobora ko'proq ta'lim xizmatlarini, ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimidagi "ta'lim xizmat"larini sifatli tashkil etishni talab qilmoqda.

2. Raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyoj rivojlangan mamlakatlar nodavlat ta'lim muassasalari tajribasini va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari kengroq va chuqurroq o'rganishni talab qilmoqda. Shu sababli ta'limni modernizatsiyalash jarayonining uzluksizligini ta'minlash davlatning ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalaridan biri sifatida qayd etilmoqda. Yoshlarni bugungi kun talabi (chet tillarni mukammal bilish, informatsion yangiliklarni o'zlashtirish) asosida moddiy va ma'naviy rivojlanishi ta'lim, xususan, uzluksiz ta'lim tizimida intellektual rivojlanishni ta'minlash – ijtimoiy va iqtisodiy natijalarga erishish vositasi sifatida qaralmoqda.

3. Innovatsion ta'lim jarayonlarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, uzluksiz ta'lim tizimida yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyati kengayib bormoqda (masalan, transmilliy ta'lim global alyansi – Global Alliance for Transnational Education – GATE).

4. Ijtimoiy sohada qabul qilingan huquqiy qonunlar va ularning ijrosini ta'minlash uchun nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini chuqur o'rganib chiqishni talab etmoqda.

5. Milliy, mintaqaviy va xalqaro ta'lim sifati va samaradorligini oshirish mexanizmi, diagnostika va baholash, ichki va tashqi nazoratiga bo'lgan talab kuchaymoqda.

Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatin oshirish kontekstida boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kompetentligi va pedagogik salohiyati katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, nodavlat ta'lim muassasalarida ta'limni yangi pedagogik texnologiyalar asosida modernizatsiya qilishda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi va mahorat darajasini oshirish alohida o'rin tutadi.

Bu esa, o'z navbatida, pedagog kadrlarning o'z ustida ilmiy va ijodiy izlanishlar olib borishi, ta'lim jarayonini tashkil etishning yangicha shakl, metod, vosita va mexanizmlarini ishlab chiqib, ta'lim samaradorligiga erishish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Darhaqiqat, nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatin modernizatsiya qilish, rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish o'z navbatida, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatin takomillashtirishni talab etadi. Shuningdek, nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatin oshirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish lozim.



Ma'lumki, nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini modernizatsiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy modellarini tatbiq etish, rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish bilan bir qatorda, yangi kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish asosida pedagogik faoliyatini loyihalashtirish va modellashtirish, innovatsion faoliyatga tayyorgarlik, shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda nodavlat ta'lim muassasalarida kasbiypedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga ham jiddiy e'tibor qaratilib, yosh o'qituvchilar uchun doimiy konferensiyalar o'tkazish, metodik kengashlar tashkil etish, ustoz-shogird institutlari, kasbiy doselar tuzish, individual pedagogik loyihalar bilan ishlash, pedagogika va psixologiya bo'yicha individual maslahatlar berish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Darhaqiqat, bugungi kunda nodavlat ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zamirida o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Chunki nodavlat ta'lim tizimi oldida turgan kechiktirib bo'lmaydigan o'ta muhim va dolzarb muammolarni shu sohadagi pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligi sifat darajasini oshirmasdan turib hal etish qiyin masaladir.

U.I. Inoyatovning ilmiy tadqiqotida kvalifikatsiya (ya'ni rahbarning pedagogika sohasidagi bilimi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, mutaxassisligi hamda kasbiga nisbatan qo'yilayotgan ijtimoiy me'yor va talablarni bilishi, shuningdek, bo'lajak mutaxassis kvalifikatsiyasi hamda ta'lim muassasasini boshqarishning nazariy asoslari yo'nalishida tushunchalarga ega bo'lishi), kasbiy mahorat (mavjud yagona pedagogik talablar asosida, pedagogik xodimlar hamda talabalarning imkoniyatlarini o'rganib, ularni hisobga olgan holda, jamoatchilik tashkilotlarini tuzish va ularni boshqarish ishlariga jalb etish; o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish asosida pedagogik xodimlar bilan ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, tanqid va o'zo'zini tanqid zaruriyatini hisobga olgan holda ularning hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, tartib-intizomni va uyushqoqlikni saqlash; boshqaruv faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash;), faoliyat unumdorligi (ta'lim oluvchilarning davlat ta'lim standartlari asosidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlaridir) ta'lim muassasasi rahbar xodimlari va o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini baholash mezonida alohida ko'rsatkichlari sifatida qayd etiladi. Haqiqatan ham, jamoani shakllantirish, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamoa oldida turgan vazifalarni bajarishda mavjud muammolarni va masalalarni hal etish yo'llarini ko'rsatish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hamda xodimlarning pedagogik va psixologik xususiyatlari, jamoa faoliyati hamda pedagog xodimlarning faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish yo'nalishlaridagi ijtimoiy-psixologik ko'nikma va malakalar nodavlat ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan rahbar va o'qituvchilar ma'suliyatini oshirishga muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi.



Shu o'rinda aytish joizki, Piter F. Druker boshqaruv faoliyatidagi tub o'zgarishlarni anglab, menejerlikni XX asr ikkinchi yarmidagi yetakchi kasbiy faoliyat turi ekanligini asoslab bergan va "islohotlar yetakchilari"ni shakllantirish zarurligiga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda respublikamizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi loyihasida katta yoshdagilar ta'limi, inklyuziv ta'lim, davlat-xususiy sheriklik, ta'lim sohasiga investitsiyalarni jalb etish, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun alohida moddada ochib berish bugungi kun ta'lim sohasidagi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Tajriba va kuzatuvlarimiz asosida shuni aytish mumkinki, nodavlat ta'lim muassasalaridagi dolzarb muammolardan biri, ishlab chiqarish bilan integratsiyaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, kadrlar tayyorlovchi muassasalar bilan buyurtmachilar o'rtasida aloqalarning sustligi va raqobat muhitining to'laqonli shakllanmaganligi hisoblanadi. Mutaxassis kadrlar ilmiy salohiyatning pastligi, o'quvchi-yoshlarni ilmga yo'naltirish ishlarining sustligi, ularda mustaqil izlanuvchanlik va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi hamda o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash malakasi talab darajasida emasligi ayrim nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatida uchraganligi achinarli hol, albatta. Bugungi kun haqiqati sifatida e'tirof etishimiz joizki, ta'limning sifati o'qituvchining sifatidan oshib keta olmaydi. Shu maqsadda ta'lim inspeksiyasi tomonidan "yo'l xaritalari" ishlab chiqilayotganligi, dars o'tayotgan pedagoglarning ilmiy salohiyati va pedagogik mahorati innovatsion rivojlanish talablariga javob berish darajasi, ta'lim tizimida yagona markazlashgan elektron ma'lumotlar tizimi mavjud joriy etish zaruriyati o'rganib chiqilmoqda.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, nodavlat ta'lim muassasalarida yechimini kutayotgan muammolar ham talaygina ekanligini inobatga olib, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi malaka oshirish kurslarining faoliyatini qayta ko'rib chiqish, ta'lim tizimini modernizatsiyalash, shuningdek pedagogik kadrlar o'rtasida ilmiy salohiyatni oshirish masalalariga ham jiddiy yondashuv zaruriyati yuzaga kelmoqda. Buning uchun:

- ta'lim tizimini modernizatsiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganib chiqish;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy modellarini amaliyotga tatbiq etish;
- o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish, birgalikda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va uzluksiz ta'lim tizimida ham ilmiy salohiyatni oshirish kabi yo'nalishlarda ishlar olib borish lozim;
- malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, ya'ni malaka oshirishning kechki, sirtqi va masofaviy shakllarini rivojlantirish;
- o'quv reja va dasturlarini mustaqil ekspertizadan o'tkazish mexanizmini joriy etish;



- o'z mutaxassisligi bo'yicha malaka oshirish hamda xalqaro hamkorlik asosida qo'shma malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

- malaka oshirishning bilvosita shakllarini tan olish va rivojlantirish, qisqa muddatli va mavzuli-tematik kurslarni tashkil qilish, o'qitishning kredit – modul shakliga o'tish, kreditlar yig'ilib borilishi va tan olinishini ta'minlash zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida malakali kadrlar ishlab chiqarish, sifatli kadrlarni tayyorlash nafaqat iqtisodiyotimiz rivoji uchun balki O'zbekiston eksportini diversifikatsiya qilish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eksport salohiyati va xalqaro tajribalarni o'rganish "ta'limda o'sish nuqta"larini aniqlash, xalqaro reytinglardan munosib o'rin olishga erishish, mustaqil ta'lim olishning xorijiy tajribasi asosida qayta ko'rib chiqib nodavlat ta'lim muassasalariga joriy etish muhimdir.

Bizning fikrimizcha, nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalish va vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim-tarbiyaning yuqori sifatini ta'minlaydigan qulay shartsharoitlar yaratish;

- sog'lom raqobat muhitini shakllantirish uchun an'anaviy ta'lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta'lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish bozorini jadal rivojlantirish;

- ilg'or xalqaro tajribalarni inobatga olib, o'qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'lim sohasidagi samaradorlik va natijaviylikni oshirish;

- nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini davlat ta'lim standartlari va talabalar asosida amalga oshirish.

Ta'lim xizmatlari keng miqyosda ommalashib borayotgan bugungi kunda nodavlat ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim yo'nalishlari asosida rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek ijtimoiy talablar, demokratik tamoyillar, ilg'or xorijiy tajribalar, ish beruvchining nodavlat ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari hamda ta'lim menejerlari kasbiy tayyorgarligiga qo'yayotgan malakaviy talablaridan kelib chiqib modernizatsiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Buning uchun albatta, pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida tayanch kompetentlik, faoliyatli-texnologik (instrumental) kompetentlik, maxsus kompetentlik va metakompetentlikning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Shu bilan birga, ilmiy-pedagogik tadqiqot jarayonida olingan kuzatish va empirik tahlil natijalarini nazariy jihatdan tahlil etish, nodavlat ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv tamoyillarini ishlab chiqish, boshlang'ich sinf o'quv – tarbiya jarayoni va ta'lim sifatini oshirishda menejment xizmati va ta'lim monitoringini takomillashtirishga e'tibor qaratish, nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishning shakl va metodlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**REFERENCES:**

1. Eshmuminovich, T. A. (2023). General characteristics of the organization of continuous pedagogical experimental work. *Bphilosophy*, 20.
2. Tursoatov, A. E. (2023). Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari. *Mugallim*, 1(1), 55-59.
3. Tursaotov, A. (2023). General characteristics of the organization of continuous pedagogical experimental work. *Science and innovation*, 2(B6), 20-26.
4. Турсоатов, А. Э. (2020). Ўқувчи-ёшларни синфдан ташқарида ўтказиладиган машғулотларнинг самарадорлигини ошириш йўллари. *TDPU xabarlari*, 1(9), 121-123.
5. Bobomurod Khujomov, A. T. (2019). Professional Competencies As Integral Qualities Of A Specialist's Personality. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 39-43.
6. Nizami, X. B. X. (2023). Didactic Principles of Development of Physical Qualities in School Students. *PINDUS Journal of Culture, Literature, and ELT*, 3(5), 36-38.
7. Xaytmurodovich, K. B. (2022). Foundation of Modern Struggle. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(12), 14-15.
8. Хужомов, Б. Х. (2020). Мустақил таълим жараёнини такомиллаштиришнинг замонавий усуллари. *Fan-Sportga*, (2), 15-16.
9. Khujomov, B., & Tangriyev, A. (2019). Professional competencies as integral qualities of a specialist's personality. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(4).
10. Nusratilloevna, M. S. (2023). Spiritual Space: Opportunities and Prospects. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(9), 230-234.
11. Муминова, М. Т., Рахматуллаева, Ш. Б., & Худайкулова, Г. К. (2023). Постдипломное образование: судьба резидентов магистратуры после прохождения специализации.
12. Акбашева, Д. М., Белова, С. К., Васильев, А. А., Везетиу, Е. В., Вовк, Е. В., Дерябин, Н. И., ... & Углицких, О. Н. (2023). НАУКА, ОБЩЕСТВО, ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.
13. Худайкулова, Г. К., Илясова, М. М., Садирходжаева, Н. С., & Исраилов, Ж. Д. (2023). ВНЕДРЕНИЕ НОВОГО ПОДХОДА К ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
14. Suyunov, B. (2021). Tezaurus va kompyuter texnologiyalariga doir. *Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects*, 1(1).
15. Suyunov, B. T. (2021). Morphology and national-cultural features of medical terms related to color in the uzbek language. *EPRA International Journal of Research and Development*, 6(1), 193-199.



16. Suyunov, B. T. (2021). Etymology of medical terms translated into Uzbek from other languages. *EPRA International Journal of Research and Development*, 6(9), 315-321.
17. Kushakova, M. N., & Salimov, I. (2023). Requirements to the specialist of the Digital Economy. *Conferencea*, 22-28.
18. Кушакова, М. Н. (2023). Этапы распространения высоких цифровых технологий в предприятиях. *Экономика и социум*, (5-1 (108)), 595-598.
19. Kushakova, M. N. (2023). New priorities for the development of the digital economy in Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 402, p. 08039). EDP Sciences.
20. Kushakova, M. N. (2022). Management methods for rail transport service personnel. *Экономика и социум*, (10-1 (101)), 881-883.
21. Абдурашитова, Е. В. (2023). Семья-Основной Фактор Воспитания Конкурентно-Способной Личности. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 66-70.
22. Vladimirovna, A. E. (2023). Tasks, The Implementation of Which Will Ensure the Food Security of the Republic of Uzbekistan. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 16, 73-76.
23. Kadyrova, O. K. (2020). Professional pedagogical activity its types and structure. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 1(12), 93-96.
24. Abdullajonovna, U. A., Xashimovna, K. D., & Bakhtiyarovna, A. B. (2020). Estimated attitude of students to cultural and leisure activities at the university. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(3), 268-281.
25. Kasimova, D. K. (2017). Problems of Students' Social Adaptation on the Basis of Values Assimilation. *Eastern European Scientific Journal*, (4).
26. Eshnazarova, M., & Nurmatov, B. (2019). The current state and content of the course Methods of calculations. *International Journal of Research Culture Sociyeti*, 3(3), 79-83.
27. Quvondiqov, S. S. (2022). Dynamic situation as a meta way of perception and understanding of competitive activity in martial arts.
28. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 259-264.